

HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI

ABDUL KARIM BINOKOR MCHJ (keyingi o'rinlarda "Ijrochi" deb yuritiladi) nomidan nizom asosida harakat qiluvchi I. Saburo'v bir tomondan To'rtko'l tumani Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan nizom asosida harakat qiluvchi A.Atadjanov ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq Ijrochi Buyurtmachining topshirig'i bilan ashyoviy shaklga ega bo'lmagan quyidagi: To'rtko'l tumani Tinchlik MFY Vatanparvar ko'chasi 120/8-uydagi Tinchlik MFY binosini yangidan qurish uchun ishlarini bajarish xizmatlarni ko'rsatish, Ijrochi esa bu xizmat uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan qo'yiladigan iqtisodiy, texnik, tashkiliy va boshqa talablar: (hisob-kitoblar, buyurtma, ishlar rejasi va hokazolarga asosan)

2. XIZMAT HAQI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

2.1. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun Buyurtmachi shartnomaviy baho to'g'risidagi bayonnomaga muvofiq 933 000 000 so'm, (To'qqiz yz o'ttiz ych million sum) shu jumladan, oldindan to'lov tartibida mazkur summaning 30 foizini 279 900 000 so'm miqdorida to'laydi.

2.3 To'lov pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.4. Ijrochining o'zi aybdor bo'lmagani holda xizmatni ko'rsata olmagan taqdirda, Buyurtmachi Ijrochiga uning xarajatlarini to'lashi shart, bunda Ijrochining xizmatlar ko'rsatishdan ozod qilinishi munosabati bilan olgan yoki olishi mumkin bo'lgan foydasi chegirib qolinadi.

2.5. Buyurtmachining aybi bilan xizmat ko'rsatish mumkin bo'lmay qolgan taqdirda, xizmatlar bahosi butunlay to'lanishi kerak.

III. XISOB – KITOB QILISH TARTIBI

3.1. "Buyurtmachi" xizmat ko'rsatish ishlar uchun oldindan 30 % miqdorida to'lov o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi, xizmatini qabul qilgan paytdan boshlab 10 kuni ichida qolgan 70 % to'lovni amalga oshiradi;

3.2. Xizmat ko'rsatish ishlar "Ijrochi"ning hududlarda ko'rsatilgan xizmati "Buyurtmachi"ga beriladi;

3.3. Xizmat ko'rsatish ishlar "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi" ning eridan o'z mablag'lari hisobidan tashib ketiladi;

IV. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Ijrochi o'z vaqtida buyurtmada ko'rsatilgan xizmat ishlardan Buyurtmachiga belgilangan muddatda etkazib bermasa, agar bu tomonlarning kelishuviga asosan ko'zda tutilgan bo'lsa, Ijrochi Buyurtmachiga Hizmatlarni kechiktirib bajarganidan har bir kun uchun buyurtmaning umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan Hizmatning bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. SHartnomaning 2.1. bandiga asosan Ijrochi tomonidan bajarilgan ishlar sifatsizligi tegishli xujjatlar bilan tasdiqlansa, u holda Buyurtmachi xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, Ijrochidan xizmatlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar xizmatlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

4.3. Buyurtmachi bajarilgan xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.4. Taraflarning javobgarlik xolatlari O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi tugrisidagi» Qonuni bo'yicha amalga oshiriladi.

4.5. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlansa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.6. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.7. "Xizmatlar" qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. Hisob-kitob hujjatida bank muassasasi shtampida ko'rsatilgan sana "Xizmatlar"ga haq to'lash bo'yicha "Xo'jalik" majburiyatlari bajarilgan sana hisoblanadi.

4.8. "Xo'jalik"ning roziligi bilan "Xizmatlar" muddatidan oldin ko'rsatilishi mumkin. "Xo'jalik" tomonidan ko'rsatilgan va qabul qilingan "Xizmatlar" uchun keyingi davrlarda ko'rsatilishi kerak bo'lgan "Xizmatlar" hisobiga haq to'lanadi va ular hisobiga o'tkaziladi.

4.9. "Xo'jalik" muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.10. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda "Xizmatlar" ko'rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" o'rnini to'ldirish sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Xizmatlar"ning o'rnini to'ldirilishi kerak. bunday "Xizmatlar" "Xo'jalik"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.10.1. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" bevosita "Xo'jalik"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko'rsatilgan "Xizmatlar" miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.10.2. Shartnomada nazarda tutilgan "Xizmatlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Xo'jalik"ning buyurtmanomasi ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Xo'jaliklarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi. Buyurtmanoma "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish mo'ljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmanomani chopar orqali qabul qilishda "Bajaruvchi"ning xodimi "Xo'jalik"da qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yadi.

4.10.3 "Xo'jalik" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ko'rsatilayotgan "Xizmatlar" sifati, miqdori "Bajaruvchi" tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" ko'rsatilayotgan "Xizmatlar"ning sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari xo'jalikka noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.2. Agar ko'rsatilgan "Xizmatlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'lmagan "Xizmatlar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.3. "Xizmatlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Xo'jalik"ka belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bo'lgan "Xizmatlar"ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, "Bajaruvchi" "Xo'jalik"ka "Xizmatlar" ko'rsatilmaligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.

5.4. Xizmatlar ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Xo'jalik"ka kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Xizmatlar" ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmaligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.5. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "Xo'jalik" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmashligi kerak.

5.6. "Xo'jalik" tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Xo'jalik"ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning xatti-harakatlari (harakatsizligi) "Xo'jalik" tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi "Bajaruvchi"ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining "Xo'jalik" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.

5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda yoxud tuman qishloq xo'jaligi bo'limi ishtirokida ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

VII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Mazkur shartnoma mazkur shartnomaning 8.4-bandiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab amalga kiradi va tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargunga qadar amal qiladi.

7.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

VIII. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

8.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

8.3. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa Iqtisodiy sud va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari tartibida hal qilinadi;

8.4. SHartnoma taraflarining o'zora kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin;

8.5. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilib, 2022 yil 31 dekabr gacha amal qiladi. SHartnoma ikki tomonlama imzolanib, G'aznachilik boshqarmasi (bo'lim)dan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

8.6. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri va qishloq xo'jaligi bo'limi uchun bir nusxadan uch nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan quyidagilarni kafolatlaydi: • qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini; • shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l ko'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini; • moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz olinmaganligini;

9.2. Taraflar ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi;

9.3. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi;

9.4. SHartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, ikkinchi taraf shartnomani bir tarafdama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi

X. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

Ijrochi:
ABDUL KARIM BINOKOR MCHU
Adres To'rtko'l Miskoriat №22
Hisob-kitob raqami
2020 8000 5008 1466 0001
STIR 305 138 031 MFO 00846



I. Saburov


Buyurtmachi:

To'rtko'l tumani Mahalla va ma'muriyatlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi

Manzil SH. Rashidov № 64 uy
X/r: 23402000300100001010
SH/x: 401722860352337011906259005
STIR 200 319 682
MFO: 00014

Markaziy bank bosh boshkarmasi
Toshkent shaxri
OKED: 84112

Rahbar: *A. Atadjanov* A. Atadjanov

	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	ATABEK ATADJANOV DJUMABAYEVICH
	Imzolangan sana	12.12.2022 16:48
	Hujjat kodi	NS1103624854
	Hulosa kodi	WQ3660782282

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

WQ3660782282

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: To'rtko'l tumani Tinchlik MFY Vatanparvar ko'chasi 120/8-uydagi Tinchlik MFY binosini yangidan qurish ishlarini bajarish
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: To'rtko'l tumani Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi tomonidan 12.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**To'rtko'l tumani
yuridik xizmat
ko'rsatish markazi
markaz rahbari:**




B.SH.AVAZMETOV

12.12.2022

«ТАСДИҚЛАЙМАН»

Тўрткўл тумани Маҳалла ва нурунларни қўллаб-қувватлаш бўлими бошлиғи

 А.Атаджанов

« 12 » 12 2022 йил

Тўрткўл тумани Тинчлик МФЙ Ватанпарвар кўчаси 120/8-уйдаги Тинчлик МФЙ биносини янгидан қуриш ишларини бажариш учун энг яхши таклифларни танлаб олиш бўйича ўтказилган.

201015/2 сонли мажлис баённомаси

Катнашувчилар:

Комиссия раиси:

А.Атаджанов -

Тўрткўл туман Маҳалла ва нурунларни қўллаб-қувватлаш бўлими бошлиғи, комиссия раиси.

Комиссия аъзолари:

С. Ражапова

Тўрткўл тумани Тинчлик МФЙ раиси, комиссия аъзоси.

Д. Сатимов

Тинчлик МФЙ хоким ёрдамчиси, комиссия аъзоси.

Д. Алимов

Етакчи мутахассис, комиссия аъзоси.

Ш.Розумов

Етакчи мутахассис, комиссия аъзоси.

Б. Бабаев

Маҳалла ва нурунларни қўллаб-қувватлаш бўлими хисобчиси, комиссия аъзоси.

Кун тартиби:

Тўрткўл туман Маҳалла ва нурунларни қўллаб-қувватлаш бўлими бошлиғи энг яхши таклифларни танлаб олиш комиссияси раиси А.Атаджанов мажлисда танлов комиссиясининг 6 аъзосидан 6 киши қатнашаётганлигини айтиб ўтиб танлов комиссияси мажлисини очик деб эълон қилди.

Ушбу танлов бўйича 2021 йил 22 апрелдаги Ўзбекистон Республикасининг 684-сонли “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонунининг 58-моддасига мувофиқ энг яхши таклифларни танлаб олиш танлов ўтказилиши хақидаги элон танлов катнашувчиларининг таклифларини қабул қилиш муддати 5 кун олдин бюджет ташкилоти томонидан махсус ахборот порталига (etender.uzex.uz) 2022 йил “ 12 ” 12 кунга № 22110012201015 лот бўйича ва 2022 йил “ 12 ” 12 кунга № 201015/2 сонли баёнома бўйича ҳеч қандай этроз келиб тушмади.

Ўзбекистон Республикаси “Давлат харидлари тўғрисида” Қонун талабларига ва юқоридаги кўрсатилган маълумотларни ҳисобга олиб танлов комиссияси

Қ А Р О Р Қ И Л А Д И :

1. Тўрткўл тумани Тинчлик МФЙ Ватанпарвар кўчаси 120/8-уйдаги Тинчлик МФЙ биносини янгидан қуриш ишларини амалга ошириш бўйича ўтказилган танлов ҳужжатларидан ҳамда танолов шартлари бўйича энг яхши таклифларни таклиф қилган ва танлов ғолиби деб ABDUL KARIM BINOKOR MCHJ 933,000,000.сўм (ҚҚС билан бирга) шартнома тузилсин.

2. Танлов ғолиби танлов шартлари асосида шартнома тузишдан бош тортган тағдирда шартнома тузиш ҳуқуқи кейинги катнашувчи (резерв) қилиб REAL MONTAJ MCHJ белгилансин. Бунда Ғолиб катнашувчи таклиф қилган суммасидан ошмаган миқдорда шартнома тузиш мумкинлиги белгилаб қўйилсин.

3. Қоиун талабларига мувофик танлов қанашувчиларнинг таклифларни кўриб чиқиш ҳамда баҳолаш муддати таклифларни бериш тугашидан 10 кун муддатдан охиригача муқим эмаслиги маълумот учун қабул қилинсин.

4. Ташкилотнинг бош ҳисобчиси Б.Бабаев танлов якуни бўйича ҳолиб билан шартнома ҳужжатларини таёрлаш ҳамда шартнома тузилгандан кейин 3 иш куни ичида тегишли ахборот парталита (etender.uzex.uz) жойлаштириш топширилсин.

5. Танлов комиссияси қотиби Ш.Розумов ушбу танловга тегишли барча ҳужжатларни белгиланган тартибда сақланиши таъминлясин.

Комиссия раиси:

А.Атаджанов -

Тўрткўл туман Маҳалла ва нурунларни қўллаб-қувватлаш бўлими бошлиғи, комиссия раиси.


Комиссия аъзолари:

С. Ражапова




Тўрткўл тумани Тинчлик МФЙ раиси, комиссия аъзоси.

Д. Сатимов



Тинчлик МФЙ ҳоким ёрдамчиси, комиссия аъзоси.

Д. Алимов



Етакчи мутахассис, комиссия аъзоси.

Ш.Розумов



Етакчи мутахассис, комиссия аъзоси.

Б. Бабаев



Маҳалла ва нурунларни қўллаб-қувватлаш бўлими ҳисобчиси, комиссия аъзоси.

